

**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI” MILLIY
TADQIQOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.T.10.02 RAQAMLI ILMY KENGASH**

**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI” MILLIY
TADQIQOT UNIVERSITETI**

HAMROQULOV JASURJON SAYLI O‘G‘LI

**SUG‘ORILADIGAN MAYDONLARDA DARYO GIDROLOGIK
REJIMINING YER OSTI SUVLARIGA TA‘SIRINI BAHOLASH
(QORASUV DARYOSI MISOLIDA)**

05.09.07 – Gidravlika va muhandislik gidrologiyasi

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Содержание автореферата диссертации доктора
философии (PhD) по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of
philosophy (PhD) on technical sciences**

Hamroqulov Jasurjon Sayli o'g'li

Sug'oriladigan maydonlarda daryo gidrologik rejimining yer osti suvlariga ta'sirini baholash (Qorasuv daryosi misolida).....

3

Хамрокулов Жасуржон Сайли угли

Оценка влияния гидрологического режима реки на подземные воды в орошаемых территориях (на примере реки Карасув).....

18

Khamrokulov Jasurjon Sayli ogli

The impact assessment of the hydrological regime river in irrigated areas to groundwater resources (in example of Karasuv river).....

35

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....

39

**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI” MILLIY
TADQIQOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMiy DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.T.10.02 RAQAMLI ILMiy KENGASH**

**“ TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI” MILLIY
TADQIQOT UNIVERSITETI**

HAMROQULOV JASURJON SAYLI O‘G‘LI

**SUG‘ORILADIGAN MAYDONLARDA DARYO GIDROLOGIK
REJIMINING YER OSTI SUVLARIGA TA‘SIRINI BAHOLASH
(QORASUV DARYOSI MISOLIDA)**

05.09.07 – Gidravlika va muhandislik gidrologiyasi

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2025.1.PhD/T5499 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tiame.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Fatxulloyev Alisher Mirzotilloevich texnika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Ikramova Malika Raximberdiyevna texnika fanlari doktori, professor Oxunov Farruxjon Abduqahorovich geologiya-mineralogiya fanlari falsafa doktori (PhD), katta ilmiy xodim
Yetakchi tashkilot:	Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Dissertatsiya himoyasi "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.T.10.02 raqamli ilmiy kengashning «_____» _____ 2025 y. soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100000, Toshkent sh., Qori Niyoziy ko'chasi, 39 uy. Tel. (+99871)-237-22-67, faks 237-54-79, e-mail: admin@tiame.uz.

Dissertatsiya bilan "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil 100000, Toshkent sh., Qori Niyoziy ko'chasi, 39 uy. Tel. (+99871)-237-19-45. e-mail: admin@tiame.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil « _____ » _____ kuni tarqatildi.

(2025 yil « _____ » _____ dagi № _____ raqamli reestr bayonnomasi).

A.T. Salohiddinov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

F.A. Gapparov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.d., professor

A.M. Arifjanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida global iqlim o'zgarishlari, demografik o'sish va iqtisodiy faollik ortishi bilan suv resurslariga bo'lgan talab keskin oshib bormoqda. Bu esa yer usti va yer osti suvlarini barqaror boshqarish, doimiy monitoringini yuritish va bashorat qilishning zamonaviy usullarini ishlab chiqishni talab etmoqda. Xususan, Geografik axborot tizimlari (GAT) va masofaviy zondlash (MZ) texnologiyalari orqali daryolar gidrologiyasi hamda yer osti suvlari dinamikasi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash, tahlil qilish va modellashtirish sohasida keng ko'lamli tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. AQSh, Germaniya, Kanada, Xitoy, Turkiya, Avstraliya, Niderlandiya va boshqa shu kabi rivojlangan mamlakatlarda suv-yer resurslarini boshqarishda integratsiyalashgan axborot texnologiyalarini qo'llash nafaqat suv ta'minoti samaradorligini oshirmoqda, balki meliorativ holatni ham barqarorlashtirmoqda.

Jahonda GAT va MZ texnologiyalaridan samarali foydalanib gidrogeologik monitoring yuritishga qaratilgan keng miqyosdagi ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda, jumladan GAT texnologiyalari asosida yaratilgan ma'lumotlar bazasi asosida yuzaga kelayotgan holatni baholash va oldini olish choralarini ko'rishga oid tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda. Shu bilan birga gidrogeologik kuzatuvlar olib borish hamda GAT ga asoslangan yagona tizimni yaratish, sun'iy yo'ldosh tasvirlari asosida yer osti suvlariga ta'sir etuvchi iqlimiy va antropogen omillarni tezkor baholash asosida sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini samarali boshqarish dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda sug'oriladigan hududlarda suv resurslaridan oqilona foydalanish, daryolar gidrologik rejimi va yer osti suvlari o'rtasidagi dinamik bog'lanishni aniqlashga qaratilgan tadqiqotlarga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 15 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida suv resurslarini boshqarish va irrigatsiya sektorini rivojlantirishning 2025-2028-yillarga mo'ljallangan dasturini tasdiqlash to'g'risida" PQ-250-sonli qarorida ushbu masalalarga alohida e'tibor qaratilgan. Mazkur vazifalarni amalga oshirish, xususan daryo va yirik sug'orish tarmoqlari gidrologik va ekpluatatsiya rejimining o'zgarishi yer osti suvlarining rejimi va sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatiga ta'siri tobora oshib bormoqda. Ayniqsa, sug'oriladigan maydonlarda yer osti suvlarining gidrodinamik rejimini zamonaviy texnologiyar yordamida monitoringini yuritish va tahlil qilish orqali samarali qarorlarni qabul qilish imkoniyatini yaratishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

Davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari sifatida qabul qilingan bir qator strategik hujjatlar, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi PF-60-sonli farmoni."¹, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi» to'g'risidagi PF-60-sonli farmoni. <https://lex.uz/docs/-5841063>

to'g'risida" PF-6024-sonli farmoni² va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 7 dekabrda "Yer osti suv resurslarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishni tartibga solish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-439-sonli qarori³ hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish» hamda VIII. "Yer to'g'risidagi fanlar (geologiya, geofizika, seysmologiya va mineral xom-ashyoni qayta ishlash)" ustuvor yo'nalishlari doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Daryolar va yer osti suvlarining gidrologik rejimi, yer osti suvlarining balansi, yer osti suvlarining sug'oriladigan maydonlarda yer osti suvlarining dinamikasini hamda meliorativ holatiga ta'sirini o'rganishga oid G.Darsi, R.L.Nace, D.M.Kats, A.N.Afanaseva, A.I.Shiklomanov, J.Dyupyui, E.Prins, B.I.Kudelin, M.Todd, V.G.Glushkov, V.A.Shelutko, N.L.Frolova, S.S.Kuzin, A.A.Sokolov, X.I.Yoqubov, S.Sh.Mirzayev, K.Sh.Latipov, V.A.Duxovniy, G.A.Mavlyanov, X.Xafyor, M.S.Hantush, Y.B.Vinogradov, A.V.Sikan, A.R.Rasulov, S.Sh.Mirzayev, A.A.Chub, S.K.Karimov, G.U.Yusupov, A.M.Arifjanov, D.R.Bozorov, F.Xikmatov, A.M.Fatxulloyev, F.A.Gapparov, D.F.Fayzullayev, Sh.X.Xolmurodov va boshqa qator tadqiqotchilar tomonidan izlanishlar olib borilgan va ma'lum ijobiy natijalarga erishilgan.

Shuningdek, yer osti suvlarining fazoviy va vaqtinchalik o'zgarishini modellashtirishda keng qo'llaniladigan geostatistik interpolyatsiya usullari qo'llash asosida G.Matheron, D.Krige, A.Journal, R.Webster, M.Oliver, P.K. Kitanidis, Pan Xiaohui, Liu Tie, Chen Xi, Huang Yue, Guo Chenyu, A.Fatxulloyev, M.Ikramova, F.Oxunov, Sh.Akmalov, Z.Abdulxayev, T.Nurmatov, S.Usmanov va boshqalarning ilmiy izlanishlarida ijobiy natijalar olingan.

Olib borilgan keng qamrovli tadqiqotlarga qaramasdan, daryo va yirik tuproq o'zanli kanallar ta'sir hududida joylashgan sug'oriladigan maydonlarda daryo gidrologik rejimi va yer osti suvlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tadqiq qilish, modellashtirish va tahlil qilishda GAT va MZ texnologiyalaridan foydalanish orqali yer osti suvlarining mavsumiy va ko'p yillik o'zgarishlarining zamonaviy monitoring tizimini ishlab chiqish bilan bog'liq bo'lgan ilmiy-texnik masalalar yetarli darajada o'rganilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.

Dissertatsiya tadqiqoti "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining №5/2022-sonli "Sug'oriladigan maydonlarda daryo gidrologik

²O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 iyuldagi «O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida» PF-6024-sonli farmoni. <https://lex.uz/docs/-4892953>

³O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 7 dekabrda "Yer osti suv resurslarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishni tartibga solish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-439-sonli qarori. <https://lex.uz/docs/-6311240>

rejimining yer osti suvlarga ta'sirini baholash" (2022-2024) mavzusidagi tadqiqot ishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Sug'oriladigan maydonlarda daryo gidrologik rejimining yer osti suvlari dinamikasiga ta'sirini masofadan zondlash texnologiyalari asosida baholash usulini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tadqiqot hududidagi mavjud va yangi joylashtirilgan gidrogeologik kuzatuv quduqlari ma'lumotlari asosida yer osti suvlari sathining ko'p yillik va mavsumiy o'zgarish dinamikasiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash va ularni miqdoriy baholash;

olingan nazariy va amaliy tadqiqot natijalari, shuningdek, tabiiy-dala sharoitida to'plangan o'lchov-kuzatuv ma'lumotlari asosida ArcGIS muhitida Inverse Distance Weighted (IDW) interpolyatsiya usulidan foydalangan holda tematik elektron xaritalar bazasini shakllantirish;

daryoning gidrologik rejimi va maydonning gidrogeologik sharoitiga oid to'plangan ma'lumotlar asosida Kriging (Named after D.G. Krige) interpolyatsiya usuli orqali hududdagi yer osti suvlari rejimining tabiiy va antropogen omillarga nisbatan ta'sirchanligini baholash;

sug'oriladigan yerlarda yer osti suvlari rejimini masofadan monitoring qilish imkonini beruvchi, geoaxborot texnologiyalari va sun'iy yo'ldosh ma'lumotlariga asoslangan dasturiy vosita (GIS-modul) ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Toshkent viloyati O'rta Chirchiq tumani Sof-Oqoltin sug'orish massivi va uning hududidan oqib o'tuvchi Qorasuv daryosi qabul qilingan.

Tadqiqotning predmeti gidrologik, gidrogeologik kuzatuvlar va masofaviy zondlash ma'lumotlari asosida yer osti suvlari sathi dinamikasiga ta'sir etuvchi omillarning miqdoriy bahosi hamda IDW/Kriging orqali fazoviy modellanishi va GIS-modul validatsiyasidan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishida gidravlika va muhandislik gidrologiyasida umum qabul qilingan usullar, dala tajriba ma'lumotlarini qayta ishlash va statistik ishlov berish, gidravlik va gidrologik modellashtirish usullari hamda EHM dasturlarini tuzish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

daryo ta'siri hududida joylashgan sug'oriladigan maydonlarda yer osti suvlari dinamikasi ArcMap muhitida Inverse Distance Weighted (IDW) interpolyatsiya usuliga integratsiya qilish asosida baholangan;

daryoning gidrologik rejimi hamda hududning irrigatsiya rejimini inobatga olgan holda sug'oriladigan maydonlarda yer osti suvlari sathining ta'sir zonalari bo'yicha o'zgarishini Kriging interpolyatsiya usulida baholash usuli ishlab chiqilgan;

yer osti suvlari sathining ko'p yillik va mavsumiy o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni inobatga olgan holda yer osti suvlari harakatining geofiltratsion modeli takomillashtirilgan;

sug'oriladigan maydonlarda gidrogeologik rejimning o'zgarishini masofadan

monitoringini yuritish mobil ilovasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

sugʻoriladigan maydonlarda yer osti suvlari harakat yoʻnalishi va sathining fazoviy taqsimotini yuqori aniqlikda aks ettiruvchi geoinformatsion xaritalar ishlab chiqilgan;

daryo gidrologik rejimi hamda sugʻorish taʼsirida shakllanuvchi yer osti suvlari rejimini oʻzgarishini tezkor baholash uchun Kriging interpolatsiyasi asosidagi baholash usuli ishlab chiqilgan;

sugʻoriladigan maydonlarda daryo taʼsiri hududida shakllanadigan yer osti suvlari filtratsiya jarayonlarini monitoring qilish va prognozlash usuli ishlab chiqilgan;

meliorativ kuzatuv quduqlari maʼlumotlarini tezkor va samarali monitoring qilish imkonini beruvchi mobil dasturiy vosita ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi sinovdan oʻtgan matematik usullar va fizikaning umum qabul qilingan qonunlaridan foydalanilganligi, yer osti suvlari sathining oʻzgarishi va ularning hududiy tarqalishini baholash usuli tabiiy-dala sharoitida olingan natijalar bilan taqqoslab tekshirilganli hamda olingan natijalarning matematik-statistik usullar yordamida ishlov berilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati sugʻoriladigan maydonlarda daryo gidrologik rejimining yer osti suvlari dinamikasiga taʼsirini masofadan zondlash, geoaxborot texnologiyalari, Kriging va geofiltratsion modellashtirish usullarini integratsiyasi asosida baholash metodologiyasining takomillashtirilishi, gidrologik-irrigatsion bogʻliqliklarni aniqlash, moslashtirish hamda kriging xaritalari orqali miqdoriy baholash usulini ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati sugʻoriladigan maydonlarda daryo taʼsir zonalarida yer osti suvlari sathini tezkor baholash uchun GAT asosidagi hududiy maʼlumotlar bazasi, vizuallashtirish xaritalari va kuzatuv quduqlari bilan integratsiya qilingan mobil monitoring ilovasini yaratilganligi hamda meliorativ holatni boshqarish va meliorativ tadbirlarni rajalashtirishda tezkor qarorlarni qabul qilish imkoniyatlarini yaratilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sugʻoriladigan maydonlarda daryo gidrologik rejimining yer osti suvlariga taʼsirini baholash (Qorasuv daryosi misolida) mavzusi boʻyicha olingan natijalar asosida:

Sugʻoriladigan yerlarning gidrogeologik monitoringini nazorat qilish boʻyicha ArcMap dasturida IDW interpolatsiya usuli asosida xaritalash va maʼlumotlarni tahlil qilish boʻyicha tavsiyalar Chirchiq-Ohangaron irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi Meliorativ ekspeditsiyada joriy qilingan. (Oʻzbekiston Respublikasi Suv xoʻjaligi vazirligining 2025 yil 15 martdagi 04/19-1155-son maʼlumotnomasi). Natijada, sugʻoriladigan maydonlarning meliorativ holatini xaritalar asosida real vaqt rejimida kuzatish imkoniyatiga ega boʻlgan monitoring tizimi yaratilgan;

Kriging geostatistik interpolatsiya usuliga asoslangan yer osti suvlari sathini baholash va prognoz qilish bo'yicha tavsiyalar Chirchiq-Ohangaron irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi Meliorativ ekspeditsiyada joriy qilingan. (O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligining 2025 yil 15 martdagi 04/19-1155-son ma'lumotnomasi). Natijada, daryo ta'siridagi sug'oriladigan maydonlarning meliorativ holatini bashorat qilish imkoniyati yaratilgan;

Sug'oriladigan maydonlarda gidrogeologik rejim o'zgarishini masofadan monitoringini yuritish bo'yicha yaratilgan mobil ilova Chirchiq-Ohangaron irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi Meliorativ ekspeditsiya hamda Amu-Buxoro irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasida joriy qilingan. (O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligining 2025 yil 15 martdagi 04/19-1155-son ma'lumotnomasi, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 08.04.2025 yildagi DGU 49345 raqamli guvohnomasi). Natijada, dala kuzatuv ishlarining samaradorligi 2,5 baravarga oshirilgan hamda o'lchov-kuzatuv ishlari bilan bog'liq bo'lgan mehnat sarfi 75-85% ga qisqartirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari xalqaro va respublika miqyosidagi anjumanlarda muhokama qilingan va ma'qullangan, jumladan, 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan 2 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilingan, 1 ta maqola Scopus bazasidagi konferensiyada, 5 ta maqola xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallarida chop etilgan hamda 1 ta EHM dasturi uchun intellektual mulk agentligining guvohnomasi olingan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 123 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsad va vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, tadqiqotning ishonchligi, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, shuningdek, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinganligi, chop etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Yer osti suvlarining shakllanishi va ularga ta'sir etuvchi omillarni o'rganishga oid tadqiqotlar tahlili**" deb nomlangan birinchi bobida muammoning hozirgi holati tahlil qilingan bo'lib, yer osti suvlari shakllanish qonuniyatlari, ularga ta'sir etuvchi tabiiy va antropogen omillar tahlil qilingan. Sug'oriladigan maydonlarda yer osti suvlari rejimi va dinamikasini aniqlashga oid


ilmiy izlanishlar ko‘rib chiqilgan bo‘lib, mavjud tadqiqotlar natijalari asosida daryo va sug‘orishning yer osti suvlariga ta‘siri ochib berilgan.

Shuningdek, yer osti suvlarining miqdoriy baholash usullari, gidravlik modellar va hisoblash metodlari tahlil qilinib, nazariy hamda amaliy qo‘llash imkoniyatlari ko‘rsatib o‘tilgan. Bundan tashqari, geoaxborot tizimlari va masofaviy zondlash texnologiyalaridan foydalanishning samaradorligi yoritilib, yer osti suvlari dinamikasini o‘rganishda ularning ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

So‘nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, global iqlim o‘zgarishi sharoitida daryo gidrologik rejimini hamda yer osti suvlari gidrogeologik rejimi, suv zaxiralarining shakllanishi va ularning sath dinamikasini baholash masalalari dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biriga aylangan. Mazkur masalalarni o‘rganishda V.A.Shelutko, M.K.Smactin, N.L.Frolova, A.M.Arifjanov, F.X.Xikmatov, A.M.Fatxulloev, F.A.Gapparov, M.R.Ikramova, Chen Xiaohong, Zhang Yong, R.A.Isangulov, A.S.Ibragimov, F.Oxunov, Z.Abdulxayev va boshqa olimlarning ilmiy izlanishlari muhim ahamiyat kasb etib, ularning ishlab chiqqan yondashuvlari amaliy tadqiqotlarda keng qo‘llanilgan.

Yuqoridagi ilmiy tahlillar natijasida ushbu dissertatsiya tadqiqotining maqsad va vazifalari shakllantirilgan bo‘lib, ular sug‘oriladigan maydonlarning gidrogeologik-meliorativ monitoring tizimini takomillashtirish, yer osti suvlari dinamikasini GIS muhiti va matematik modellashtirish asosida baholash samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Dissertatsiya ishining **“Tabiiy dala sharoitida olib borilgan izlanishlar”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot hududning tabiiy-geografik, iqlimiy, gidrologik, geologik va gidrogeologik hamda tuproq sharoitlarini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqot natijalari bayon etilgan.




1-rasm. Tadqiqot hududining xaritasi

Toshkent viloyati, O‘rtachirchiq tumani hududidan oqib o‘tuvchi Qorasuv daryosini Nayman gidrouzelineing (PK 641+14) o‘ng qirg‘og‘idagi sug‘oriladigan maydonlarda tabiiy dala sharoitida mavjud va yangi barpo etilgan kuzatuv quduqlarida olib borilgan tadqiqotlar asosida yer osti suvlariga tabiiy va antropogen omillarning ta‘siri, ularning harakati va maydon bo‘yicha tarqalishi gidrogeologik

qonuniyatlar asosida o'rganildi. Dala tadqiqotlari rivojlangan davlatlarda amalda qo'llanilayotgan Diver Data Logger, GPS qurilmasi kabi zamonaviy o'lchov vositalarida gidrodinamik tahlil, piezometrik metodlari yordamida olingan natijalar yer osti suvlari dinamikasi asosan daryo oqimining mavsumiy o'zgarishi va sug'orish rejimiga bog'liqligi aniqlandi.

Ushbu jarayonlarni uzluksiz monitoring qilish maqsadida kuzatuv quduqlari masofadan ma'lumot uzatuvchi DIVER tipidagi avtomatik qurilmalar bilan jihozlandi (2-rasm).




2-rasm. Tadqiqot hududida qo'shimcha kuzatuv quduqlarini o'rnatish va monitoring tizimi

Yer osti suvlarining hududiy taqsimoti relyef shakllari, gidrologik sharoit va litologik tuzilma bilan bir qatorda, sug'orish intensivligi hamda yog'in miqdorining o'zgarishiga sezilarli darajada bog'liqligi aniqlandi. Tadqiqot natijalarining ishonchligi hududning ko'p yillik gidrogeologik kuzatuv ma'lumotlari hamda daryo gidrologik rejimining dinamik tahlili orqali tasdiqlandi. Grafik tahlillar asosida Qorasuv daryosi suv sathi bilan yer osti suvlarining sathi o'rtasida kuchli statistik bog'liqlik mavjudligi aniqlanib, korrelyatsiya koeffitsiyenti $r=0,89$ ga teng bo'ldi. Bu orqali daryo sathi tebranishlari yer osti suvlarining shakllanishi va ularning mavsumiy dinamikasiga bevosita va sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.

Dissertatsiyaning **“Yer osti suvlari sathi dinamikasini baholashda GAT texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi”** deb nomlangan uchinchi bobida Tadqiqot hududida yer osti suvlarining dinamikasi zamonaviy geoaxborot texnologiyalari (GAT) yordamida tahlil qilinib, sug'oriladigan maydonlardagi yer osti suvlari harakati va taqsimoti aniqlandi. Tadqiqot hududida yer osti suvlarining o'zgarishi dastlab IDW interpolatsiya usuli orqali baholandi, chunki ushbu usul kuzatuv nuqtalari asosida qiymatlarni tez va samarali hisoblash hamda hududiy o'zgaruvchanlikning umumiy tendensiyasini aniqlash imkonini beradi. Shu bilan birga, turli sug'oriladigan (tomchilatib, yomg'irlatib, an'anaviy) maydonlar kesimida yer osti suvlarining dinamikasi hamda daryoning ta'sir zonalari Kriging usuli yordamida baholandi. Ushbu yondashuv hududiy o'zgaruvchanlikni yuqori aniqlikda ifodalash va daryo infiltratsiyasi ta'sir radiusini aniqlash imkonini berdi.


Dastlab kuzatuv quduqlaridan olingan ma'lumotlar ArcMap dasturi yordamida tahlil qilindi. Ushbu dastur ma'lumotlarni hududiy koordinatalar asosida qayta ishlash va vizualizatsiya qilish imkonini berishi sababli tanlandi. Keyinchalik maydon bo'yicha yer osti suvlari sathining taqsimoti baholanib, IDW interpolatsiya

usuli qo‘llanildi. Mazkur usul kuzatuv nuqtalaridagi qiymatlardan foydalanib, butun maydon bo‘yicha yer osti suvlarining uzluksiz taqsimotini aniqlash hamda umumiy IDW xaritalarini shakllantirish imkonini berdi (3-rasm).



3-rasm. Tadqiqot hududida yer osti suvlari sathining maydon bo‘yicha umumiy o‘zgarishini IDW usulida baholash

IDW interpolatsiyasi asosida olingan xaritaga ko‘ra, tadqiqot hududida yer osti suvlarining sathi asosan 2,10-3,20 m diapazonda tarqalgan. Tadqiqot hududi bo‘yicha IDW interpolatsiya parametrlarida power $p=2$, radius 500 m va nuqtalar soni 6 etib belgilandi, bu esa kuzatuv nuqtalarining hududiy taqsimoti va zichligiga moslashtirildi. Qo‘shimcha vazn koeffitsiyentlari (yaqin nuqtalarga 1,3 va uzoq nuqtalarga 0,9) modelning aniqligi va hududiy reprezentativligini oshirishga imkon berdi. Olingan natijalar asosida yer osti suvlari sathining hududiy taqsimotini hamda daryo ta‘sir zonasidagi o‘zgarishlarni kelgusida bashorat qilish zarurati yuzaga keladi. Shu maqsadda keyingi tahlillarda variogramma parametrlariga asoslangan hamda prognozlash imkoniyatiga ega bo‘lgan Kriging usulidan foydalanildi. Tadqiqot hududida ko‘p yillik kuzatuv ma‘lumotlari hamda tabiiy-dala sharoitida olingan natijalar asosida yer osti suvlari sathining o‘zgarishi tahlil qilindi (4-rasm).



4-rasm. Qorasuv daryosining xarakterli yillarida hudud yer osti suv sathi dinamikasini Kriging usulida baholash natijalari

Tadqiqot hududida ($41.053421^{\circ}N$, $69.254903^{\circ}E$) Kriging usuli asosida olingan natijalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, yer osti suvlari sathi dinamikasi yilning

gidrologik sharoitlariga, ya'ni daryoning suvliligiga bevosita bog'liq. Jumladan, daryoda ko'p suvli 2017-yilda yer osti suvlari 1,20-2,90 m oralig'ida qayd etilib, bu jarayon gidravlik gradiyentning ortishi va daryo bilan sug'oriladigan maydonlar o'rtasidagi filtratsiya oqimlarining jadallashuvi hisobiga yuzaga kelgan. O'rtacha suvli 2011-yilda esa yer osti suvlari 1,50-3,50 m diapazonda bo'lib, gidrogeologik sharoitlarda nisbiy barqarorlik kuzatilgan, biroq hududiy notekislik saqlanib qolgan. Kam suvli 2023-yilda esa sath 1,80-4,80 m oralig'ida o'zgarib, daryoning ta'siri sezilarli darajada kamaygan, sug'orishda suvni tejoychi texnologiyalar (tomchilatib va yomg'irlatib sug'orish)ning joriy etilishi esa maydonlardagi suv rejimiga qo'shimcha ta'sir ko'rsatgan.

Kriging usuli gidrogeologik kuzatuv nuqtalarida qayd etilgan suv sathi ma'lumotlariga asoslanib, hudud bo'yicha yer osti suvlarining fazoviy taqsimoti va ehtimoliy sathini model qilish hamda bashoratlash imkonini yaratadi. Mazkur uslub gidrologik va gidrogeologik jarayonlarning hududiy xususiyatlarini aniqlash, shuningdek suv rejimini boshqarish hamda daryoning ta'sir chegarasini aniqlash hamda yer osti suvlari balansini tahlil qilish imkoniyati yaratiladi.

Tadqiqot hududida turli sug'orish usullari qo'llaniladigan maydonlar mavjud bo'lgani sababli, har bir maydon uchun Daniel Hillel, Robert Evans va Jon Nilson modellaridan foydalanilgan holda maydon bo'ylab yer osti suv sathlarining o'zgarish dinamikasi aniqlanib, olingan natijalar Kriging usuli asosida hisoblangan qiymatlar bilan taqqoslab tahlil qilindi (1-jadval).

Jadval 1. Turli sug'orish usullari mavjud maydonlarda yer osti suv sathi bo'yicha dala kuzatuvlari, Kriging va model natijalarining taqqoslanishi

Sug'oriladigan maydon	Dala o'lchovi (m)	Kriging natijasi (m)	Model nomi	Model natijasi (m)	Dala va Kriging farqi (m)
Tomchilatib	3,44	3,40	Daniel Hillel modeli	3,18	0,04
Yomg'irlatib	3,38	3,31	Robert Evans modeli	3,16	0,07
An'anaviy	3,36	3,46	Jon Nilson modeli	3,07	0,10

Dala o'lchovlari, turli modellar orqali hisoblangan qiymatlar va Kriging usuli yordamida olingan natijalar o'zaro taqqoslanib tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, daryoning ta'siri va sug'orish usullari bo'yicha model natijalari o'rtasida farqlar mavjudligi aniqlandi.

Daryo gidrologik rejimining tadqiqot hududi yer osti suvlari sathining dinamikasiga doimiy ta'sir ko'rsatishi va ta'sir chegarasi bevosita daryodagi suv sathining o'zgarishiga bog'liq. Jumladan suv sathining maksimal qiymati kuzatilgan 2017 yilda uning ta'sir chegarasi $F=11,64 \text{ km}^2$ ga teng bo'lgan. Daryoda minimal suv sathi kuzatilgan 2023 yilda 184,3 sm bo'lib ushbu yilda yer osti suvlarining o'rtacha yillik suv sathi 3,05 m ga tushgan. Ushbu davrda daryoning ta'sir chegarasi maydoni $F=4,06 \text{ km}^2$ teng bo'lgani aniqlandi. Masofadan zondlash tasvirlari va

Kriging usullari orqali olingan ma'lumotlar yer osti suvlari sathining o'zgarishini chegarasini aniq baholash imkonini berdi.

Masofadan zondlash ma'lumotlari va uni Kriging modeli yordamida tahlil qilish natijalari sug'oriladigan yerlarning gidrogeologik rejimini nazorat qilishning masofaviy usullarini ishlab chiqishga erishildi.

Dissertatsiyaning **“Yer osti suvlari dinamikasini raqamli texnologiyalar asosida baholash”** deb nomlangan to'rtinchi bobida Qorasuv daryosi ta'sir hududida joylashgan sug'oriladigan maydonlarda daryo va yer osti suvlari o'rtasidagi gidravlik bog'liqlikni ifodalovchi raqamli geofiltratsion model Kriging usuli parametrlari asosida Busineks ikki o'lchamli yer osti suvlarining harakati modeli yordamida takomillashtirildi.

Qaralayotgan tadqiqot hududi, Qorasuv daryosining o'ng qirg'og'ida joylashganligi ($\frac{\partial h}{\partial y} = 0$) hamda ($Q_{kq} = 0$) chegaraviy shartlar asosida tadqiqot hududi uchun geofiltratsion model quyidagicha qabul qilindi:

$$\frac{\partial h}{\partial t} = \frac{\partial}{\partial x} \left(k_x h \frac{\partial h}{\partial x} \right) + f(x, t) \quad (1)$$

bu yerda $h(x, y, t)$ - yer osti suvlari sathi [m], k_x, k_y - filtratsiya koeffitsiyenti [m/kun], $\frac{\partial h}{\partial x} = (K_x h \frac{\partial}{\partial x})$; - ya'ni Darsi-Dyupui qonuni bo'yicha yer osti suvlari oqimi; h - qatlam qalinligi [m].

Hududda yer osti suvlarining o'zgarishiga sug'orish va boshqa iqlimiy omillarni hisobga olish uchun $f(x, t)$ ni quyidagicha qabul qilinadi:

$$f(x, t) = \frac{P(t) + I(t) - ET(t) - \Delta S(t)}{1000} \quad (2)$$

bu yerda f - yer osti suvlarining sug'orish va iqlimiy omillar hisobiga to'yinishi [m/kun]; $P(t)$ - atmosfera yog'inlari [mm]; $I(t)$ - sug'orish me'yor; $ET(t)$ - evotranspiratsiya [mm]; $\Delta S(t)$ - tuproq namligi [mm].

Sug'oriladigan maydonlarda yer osti suv sathining ko'p yillik va mavsumiy o'zgarishlariga ta'sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash maqsadida quyidagi bazaviy tenglamadan foydalanildi:

$$h_{baza}(x, t) = \sqrt{h(0, t)^2 + \frac{2f(t)L}{K}x - \frac{f(t)}{K}x^2} \quad (3)$$

Keyingi bosqichda ushbu bazaviy modelga Kriging parametrini kiritish orqali aniqlik oshirildi, bunda har bir kuzatuv nuqtasi uchun quyidagi farq ifodasi hisoblandi:


$$\partial h(x_i, t) = h_{quduq}(x_i, t) - h_{baza}(x_i, t) \quad (4)$$

Yer osti suvlarining hududiy tarqalishini davriy baholash va fazoviy interpolatsiyani amalga oshirish maqsadida Kriging interpolatsiyasining variogramma parametrlari - nugget (o) - boshlang'ich dispersiya, sill (s) - umumiy dispersiya chegarasi, hamda range (n) - ta'sir radiusi - asosida kovariatsiya

funksiyasi shakllantirildi. Natijada, geofiltratsion jarayonlarning hududiy modellashuvi uchun yakuniy model quyidagi ko‘rinishda ifodalandi:

$$\hat{h}(x, t) = h_{baza}(x, t) + \widehat{\delta h}(x, t) \quad (5)$$

Mazkur geofiltratsion model sug‘oriladigan maydonlarda yer osti suvlarining shakllanishi, harakati va taqsimlanish jarayonlarini miqdoriy baholash hamda ularni tabiiy va antropogen omillar ta‘sirida yuzaga keladigan o‘zgarishlarni aniqlash maqsadida ishlab chiqilgan. Model yordamida dala sharoitida kuzatuv quduqlarida o‘lchangan suv sathi ma‘lumotlari bilan hisoblangan qiymatlar o‘zaro solishtirilib, natijada model kalibrlanadi va hudud bo‘yicha yer osti suvlarining haqiqiy fazoviy taqsimoti aniqlanadi. Qorasuv daryosi yaqinidagi yer osti suvlari sathini aniqlash bo‘yicha modellash natijalarining ishonchliligini baholash maqsadida dala o‘lchov natijalari bilan taqqoslash amalga oshirildi. Olingan natijalar 5-rasmda keltirilgan.



5-rasm. Kuzatuv quduqlarida o‘lchangan va model yordamida aniqlangan yer osti suvlari sathlarini solishtirish


Grafikdan ko‘rinib turibdiki, kuzatuv quduqlarida qayd etilgan yer osti suvlari sathi bo‘yicha dala o‘lchovlari (qizil nuqtalar) tavsiya etilgan model orqali aniqlangan natijalar (yashil nuqtalar) bilan yuqori darajada mos keladi. Tahlil natijalariga ko‘ra, dala o‘lchovlari va model qiymatlari o‘rtasidagi farq o‘rtacha $\pm 0,12-0,20$ m ni tashkil etib, o‘rtacha kvadratik xatolik (RMSE) $0,046$ m ga teng bo‘ldi. Shuningdek, aniqlik darajasi koeffitsiyenti (R^2) $0,74$ ga teng bo‘lib, modelning ishonchlilik darajasi yuqori ekanligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot doirasida Flutter platformasi asosida ishlab chiqilgan va Android 12+ tizimida ishlovchi “Kuzatuv quduqlari” mobil ilovasi yaratildi. Ushbu ilova yer osti suvlari sathi, bosimi, harorati va minerallashuvini masofadan kuzatish hamda ma‘lumotlarni avtomatik yig‘ish va tahlil qilish jarayonlariga xizmat qiladi. Yaratilgan ilova gidrogeologik kuzatuvlarning tezkorligi va aniqligini $60-70\%$ ga oshiradi, monitoring samaradorligini yaxshilaydi (6-rasm).



6-rasm. Kuzatuv quduqlari mobil ilovasining umumiy ko‘rinishi

Masofaviy monitoring tizimi uchun ishlab chiqilgan dasturiy ta’minot kuzatuv quduqlaridan olingan ma’lumotlarni avtomatik yig‘ish, saqlash va tahlil qilish imkonini beradi. Dastur mikrokontroller va IoT-modullar bilan integratsiyalashgan bo‘lib, suv sathi, bosim, harorat va minerallasuv kabi parametrlarni real vaqt rejimida qayd etadi. Olingan ma’lumotlar bulutli server orqali markaziy ma’lumotlar bazasiga uzatiladi va GIS asosidagi vizual platformada tahlil qilinadi.



Tartib raqami	Xojalik nomi	Otdiq raqami	O'rtacha oylik suv koinatsiyasi (m)	O'rtacha oylik suv koinatsiyasi (m)			Ilova maydoni
				I	II	III	
1	Sof Oq oltin	90	3.1	3.09	3.1	3.12	3-5 mepprava
2	Sof Oq oltin	89	2.58	2.56	2.58	2.59	2-3 mepprava
3	Sof Oq oltin	88	2.71	2.72	2.7	2.72	2-3 mepprava
4	Sof Oq oltin	53	4.05	4.05	4.05	4.05	3-5 mepprava
5	Sof Oq oltin	52	2.12	2.15	2.1	2.1	2-3 mepprava
6	Sof Oq oltin	51	3.44	3.3	3.45	3.38	3-5 mepprava
7	Sof Oq oltin	50	2.33	2.33	2.33	2.33	2-3 mepprava
8	Sof Oq oltin	49	2.35	2.3	2.35	2.4	2-3 mepprava
9	Sof Oq oltin	48	5.01	5.01	5.01	5.01	>5 mepprava

7-rasm. Kuzatuv quduqlari mobil ilovasidan o‘lchangan ma’lumotlarni bazadan yuklab olish jarayoni

Ushbu “Kuzatuv quduqlari” mobil ilovasi IoT texnologiyasiga asoslanib, ma’lumotlarni markaziy serverga uzatadi va ularni avtomatik tahlil qilishni ta’minlaydi. Bu usul gidrogeologik jarayonlarni aniqlik bilan baholash, monitoring ishlarining samaradorligini oshirish hamda an’anaviy usullarga nisbatan 75-85% gacha xarajatlarni tejash imkonini beradi.

XULOSALAR

“Sug‘oriladigan maydonlarda daryo gidrologik rejimining yer osti suvlariga ta’sirini baholash (Qorasuv daryosi misolida)” mavzusida olib borilgan dissertatsiya tadqiqotlari asosida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Ko‘p yillik kuzatuv ma’lumotlari tahlili asosida sug‘oriladigan maydonlarda yer osti suvlari sathining shakllanishi va uzoq yillar davomida o‘zgarishi daryo gidrologik rejimi, tabiiy-geologik sharoitlar hamda irrigatsiya-melioratsiya

tadbirlarining o‘zaro ta‘siriga chambarchas bog‘liqligi aniqlandi. Ushbu holat yer osti suvlarining rejimini kompleks yondashuv asosida baholash suv resurslaridan samarali foydalanishning muhim omillaridan biri ekani ilmiy jihatdan asoslandi.

2. Masofaviy zondlash va geoaxborot texnologiyalari hamda Kriging geostatistik interpolyatsiyasi va geofiltratsiya usullarini integratsiyalash orqali daryoning gidrologik rejimining yer osti suvlariga ta‘sirini baholashning takomillashtirilgan modeli ishlab chiqildi. Ushbu model gidrologik-irrigatsion bog‘liqliklarni miqdoriy baholash hamda yer osti suvlari dinamikasini turli tsenariylar uchun ishonchli bashorat qilish imkoniyatini yaratadi.

3. Kuzatuv quduqlari ma‘lumotlari tahlili asosida yer osti suvlari sathining ko‘p yillik va mavsumiy o‘zgarishlariga ta‘sir etuvchi omillar miqdoriy baholash natijasida yer osti suvlari shakllanishida sug‘orish manbalari ulushi 47-49%, daryoning bevosita ta‘siri 20-29%, atmosfera yog‘inlari ulushi esa 1-3% ekanligi aniqlandi. Ushbu natijalar yer osti suvlarining dinamikasini boshqarishda sug‘orish hamda daryo rejimini inobatga olish muhim ahamiyatga ega ekanligi ko‘rsatdi.

4. ArcMap dasturida IDW interpolyatsiya usullari yordamida sug‘oriladigan maydonlarda yer osti suvlari sathining mavsumiy va ko‘p yillik o‘zgarish xaritalari tuzildi. Ushbu tematik xaritalar yordamida sug‘oriladigan maydonlarning meliorativ holatini real vaqt rejimida kuzatish va tahlil qilish imkonini yaratadi.

5. Turli sug‘orish usullari joriy etilgan maydonlarda olib borilgan tadqiqot natijalari asosida yer osti suvlari sathining mavsumiy o‘zgarishlarini Kriging modeli orqali baholash natijasida an‘anaviy sug‘orishda dalada o‘lchangan o‘rtacha sath 3,36 m, modelda 3,46 m (farq 0,10 m), yomg‘irlatib sug‘orishda 3,38 vs 3,31 m (0,07 m), tomchilatib sug‘orishda 3,44 vs 3,40 m (0,04 m) ekanligi aniqlangan. Shu bilan birga, daryo suv sathi bilan yer osti suvlari sathi o‘rtasida yuqori darajada bog‘liqlik ($r = 0,89$) mavjudligi tasdiqlandi.

6. Masofaviy zondlash ma‘lumotlari bilan Kriging interpolyatsiya modelidan foydalangan holda yer osti suvlarining fazoviy dinamikasini baholash natijalari asosida daryo suv sathining o‘zgarishiga bog‘liq ravishda uning ta‘sir zonasining xaritalari ishlab chiqildi ($H_{\max}=372,4$ sm da $F_{\max}=11,64$ km²; $H_{\min}=183,4$ sm da $F_{\min}=4,06$ km²). Shu asosda masofaviy zondlash va Kriging usullaridan foydalangan sug‘oriladigan yerlarning global miqyosdagi yer osti suvlarini monitoring qilishning yangi samarali usuli ishlab chiqildi.

7. Sug‘oriladigan yer maydonlarida yer osti suvlarini masofadan monitoring qilishni ta‘minlaydigan mobil ilova (№ DGU 49345) DIVER qurilmasi yordamida quduqlardan olingan suv sathi o‘zgarishini real vaqt rejimida kuzatib borish jarayoni soddalashtirildi. Natijada dala o‘lchov-kuzatuv ishlari samaradorligi 2,5 baravarga oshirildi va o‘lchov-kuzatuvlarni olib borishda mehnat sarfi 75-85 % ga qisqartirildi.

8. Tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar Chirchiq-Ohangaron irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi Meliorativ ekspeditsiya hamda Amu-Buxoro irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi faoliyatida joriy etildi. Natijada sug‘oriladigan maydonlarda yer osti suvlarini real vaqt rejimida kuzatish, ularning sathini oldindan baholash va masofaviy nazorat qilish imkonini beruvchi amaliy monitoring tizimi sifatida joriy etildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.Т.10.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАЦИОНАЛЬНОМ
ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ «ТАШКЕНТСКИЙ
ИНСТИТУТ ИНЖЕНЕРОВ ИРРИГАЦИИ И МЕХАНИЗАЦИИ
СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА»**

**НАЦИОНАЛЬНЫЙ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
«ТАШКЕНТСКИЙ ИНСТИТУТ ИНЖЕНЕРОВ ИРРИГАЦИИ И
МЕХАНИЗАЦИИ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА»**

ХАМРОКУЛОВ ЖАСУРЖОН САЙЛИ УГЛИ

**ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ ГИДРОЛОГИЧЕСКОГО РЕЖИМА РЕКИ НА
ПОДЗЕМНЫЕ ВОДЫ В ОРОШАЕМЫХ ТЕРРИТОРИЯХ (НА
ПРИМЕРЕ РЕКИ КАРАСУВ)**

05.09.07 – Гидравлика и инженерная гидрология

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ НА СОИСКАНИЕ УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ
ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии Министерства высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером № В2025.1.PhD/T5499.

Диссертация выполнена в Национальном исследовательском университете «Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства»

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекском, русском и английском (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета по адресу: www.tiame.uz и образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net).

Научный руководитель:: **Фатхуллоев Алишер Мирзотиллоевич**
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты: **Икрамова Малика Рахимбердиевна**
доктор технических наук, профессор

Охунов Фаррухжон Абдукахорович
доктор философии (PhD) по геолого-минералогическим наукам, старший научный сотрудник

Ведущая организация: **Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека**

Защита диссертации состоится «__» _____ 2025 г. в ____ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.T.10.02 при Национальном исследовательском университете «Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства» (Адрес: г. Ташкент 100000, ул. Кары Ниязий, 39. Тел. (+99871) 237-09-45, факс: (+99871) 237-38-79 e-mail admin@tiame.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального исследовательского университета «Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства» (регистрационный номер _____) (Адрес: г. Ташкент 100000, ул. Кары Ниязий, 39. Тел. (+99871) 237-09-45, факс: (+99871) 237-38-79, e-mail admin@tiame.uz).

Автореферат диссертации разослан « _____ » _____ 2025 года.

(Протокол рассылки № _____ от «__» _____ 2025 года).

А.Т. Салохиддинов
Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, доктор технических наук, профессор

Ф.А. Гаппаров
Ученый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, доктор технических наук, профессор

А.М. Арифжанов
Председатель научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, доктор технических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мировом масштабе в условиях глобальных изменений климата, роста численности населения и повышения экономической активности резко возрастает спрос на водные ресурсы. Это, в свою очередь, требует разработки современных методов устойчивого управления поверхностными и подземными водами, ведения постоянного мониторинга и осуществления прогнозирования. В частности, посредством технологий географических информационных систем (ГИС) и дистанционного зондирования (ДЗ) проводятся широкомасштабные исследования, направленные на выявление, анализ и моделирование взаимосвязи между гидрологией рек и динамикой подземных вод. В таких развитых странах, как США, Германия, Канада, Китай, Турция, Австралия, Нидерланды и других, использование интегрированных информационных технологий в управлении водно-земельными ресурсами способствует не только повышению эффективности водоснабжения, но и стабилизации мелиоративного состояния. В мире ведутся масштабные научные исследования, направленные на эффективное использование технологий ГИС и ДЗ для осуществления гидрогеологического мониторинга.

В данном направлении приоритетными являются исследования, посвящённые оценке возникающих ситуаций и мерам их предотвращения на основе баз данных, созданных с использованием технологий ГИС. Наряду с этим, актуальными задачами остаются проведение гидрогеологических наблюдений, создание единой системы на основе ГИС, а также оперативная оценка климатических и антропогенных факторов, влияющих на подземные воды с использованием спутниковых снимков, что обеспечивает эффективное управление мелиоративным состоянием орошаемых земель.

В нашей Республике на государственном уровне уделяется особое внимание вопросам рационального использования водных ресурсов в орошаемых территориях, выявлению динамических взаимосвязей между гидрологическим режимом рек и подземными водами. В частности, в Постановлении Президента Республики Узбекистан от 15 августа 2025 года № PQ-250 «О утверждении программы управления водными ресурсами и развития ирригационного сектора в Республике Узбекистан на 2025-2028 годы» данному направлению уделено особое внимание. Реализация этих задач, в том числе исследование влияния изменений гидрологического и эксплуатационного режима рек и крупных оросительных каналов на режим подземных вод и мелиоративное состояние орошаемых земель, приобретает всё большее значение. Особенно важно осуществление мониторинга гидродинамического режима подземных вод на орошаемых территориях с применением современных технологий и проведение анализа, что позволяет формировать эффективные управленческие решения.

Как приоритетные направления государственной политики приняты ряд стратегических документов, в числе которых: Указ Президента Республики

Узбекистан от 28 января 2022 года № ПФ-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы»¹, Указ Президента Республики Узбекистан от 10 июля 2020 года № ПФ-6024 «Об утверждении концепции развития водного хозяйства Республики Узбекистан на 2020-2030 годы»², Постановление Президента Республики Узбекистан от 7 декабря 2022 года № PQ-439 «О дополнительных мерах по охране подземных водных ресурсов и регулированию их рационального использования»³, а также другие нормативно-правовые акты в данной сфере. Настоящее диссертационное исследование в определённой степени направлено на реализацию задач, обозначенных в указанных документах.

